



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBİ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Baybutayeva Farangiz Farxod qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Байбутаева Фарангиз Фарход кизи

IMPROVING THE ACCOUNTING SYSTEM IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Baybutayeva Farangiz Farkhod qizi

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya tizimlari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan dasturiy platformalarning jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobi jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi, hisob ma'lumotlarining aniqligi va shaffofligini ta'minlash, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborot tizimlarining ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan hisob tizimi, bulutli texnologiyalar, Big Data, blokcheyn, moliyaviy nazorat, boshqaruv qarorlari.

Abstract: This article scientifically analyzes the theoretical and practical aspects of improving the accounting system in the conditions of the digital economy. In the modern economy, the rapid development of digital technologies, information and communication systems, artificial intelligence, and automated software platforms significantly affects accounting processes. The article examines the possibilities of digitalizing the accounting system, electronic document management, cloud technologies, big data (Big Data), and blockchain technologies. In addition, the effectiveness of using digital platforms in maintaining accounting records at enterprises, ensuring the accuracy and transparency of accounting data, strengthening financial control, and the importance of information systems in the process of making managerial decisions are highlighted.

Keywords: digital economy, accounting, digitalization, information and communication technologies, electronic document management, automated accounting system, cloud technologies, Big Data, blockchain, financial control, managerial decisions.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируются теоретические и практические аспекты совершенствования системы бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики. В современной экономике стремительное развитие цифровых технологий, информационно-коммуникационных систем, искусственного интеллекта и автоматизированных программных платформ оказывает значительное влияние на процессы бухгалтерского учета. В статье рассматриваются возможности цифровизации системы бухгалтерского учета, электронного документооборота, использования облачных технологий, больших данных (Big Data) и технологии блокчейн. Также освещаются эффективность использования цифровых платформ при ведении бухгалтерского учета на предприятиях, обеспечение точности и прозрачности учетных данных, усиление финансового контроля, а также значение информационных систем в процессе принятия управленческих решений.



Ключевые слова: цифровая экономика, бухгалтерский учет, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, электронный документооборот, автоматизированная система учета, облачные технологии, Big Data, блокчейн, финансовый контроль, управленческие решения.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yangi iqtisodiy model — raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beruvchi zamonaviy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli korxonalar faoliyatida moliyaviy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga keng joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan buxgalteriya hisobi tizimi ham zamonaviy raqamli platformalar asosida transformatsiyalashib bormoqda. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari, elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy axborotlarning aniqligi va tezkorligini ta'minlab, korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya doirasida davlat boshqaruvi, moliya tizimi, sanoat, bank va xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda internetdan foydalanuvchilar ulushi 2015-yildagi 43,6 foizdan 2024-yilga kelib 85 foizga yetgan. Shuningdek, elektron davlat xizmatlari soni 2024-yilga kelib 595 taga yetib, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish jarayonlari sezilarli darajada jadallashgan. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham izchil oshib bormoqda. Masalan, 2018-yilda mazkur ko'rsatkich 1,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 3,4 foizga yetgan. Raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi natijasida iste'mol tranzaksiyalarining 60 foizdan ortig'i elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4699-son Farmoni asosida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish bo'yicha 35 ta ustuvor loyiha amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, ushbu loyihalar umumiy qiymati 17,6 trillion so'mni tashkil etadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi buxgalteriya hisobi tizimiga ham yangi talablarni qo'yimoqda. An'anaviy buxgalteriya hisobida qo'lda bajariladigan ko'plab operatsiyalar zamonaviy raqamli dasturiy vositalar yordamida avtomatlashtirilmoqda. Bu esa moliyaviy hisobotlarning aniqligi, tezkorligi va ishonchligini oshirish bilan birga, iqtisodiy faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni himoya qilish hamda zamonaviy buxgalteriya dasturlarini amaliyotga keng tatbiq etish kabi muhim vazifalar yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish masalasi iqtisodiyot va moliya sohasida faoliyat yuritayotgan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni buxgalteriya hisobi tizimiga joriy etish orqali moliyaviy axborotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobi nazariyasini rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan olimlardan biri Barry Elliott va Jamie Elliott bo'lib, ularning "Financial Accounting and Reporting" nomli asarida zamonaviy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotlarni qayta ishlash jarayonida axborot texnologiyalarining roli keng yoritilgan. Mualliflarning fikricha, raqamli texnologiyalarni buxgalteriya tizimiga joriy etish moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish, ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Amerikalik olim Romney B. Marshall va Paul J. Steinbart o'zlarining "Accounting Information Systems" nomli ilmiy tadqiqotida buxgalteriya hisobi tizimini axborot tizimlari bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy korxonalarda buxgalteriya hisobi faqatgina moliyaviy ma'lumotlarni qayd etish vositasi bo'lib qolmay, balki korxona boshqaruvini samarali tashkil etish uchun muhim axborot tizimi vazifasini ham bajaradi. Mualliflar buxgalteriya axborot tizimlarini raqamlashtirish orqali moliyaviy jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratilishini qayd etadi.

Raqamli texnologiyalarni buxgalteriya hisobiga joriy etish bo'yicha Ernst & Young xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlaridan foydalanayotgan korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoni o'rtacha 30–40 foizga tezlashgan hamda hisob-kitoblardagi xatoliklar sezilarli darajada kamaygan.



O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. Vahobov va D. G'ulomov o'z ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya va buxgalteriya tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish orqali moliyaviy nazoratni kuchaytirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini optimallashtirish mumkin. Shuningdek, iqtisodchi olim Sh. Shodmonov va U. G'afurov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri keng tahlil qilingan. Mualliflar raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida iqtisodiyotda shaffoflik darajasi oshishi, moliyaviy operatsiyalar ustidan nazorat kuchayishi hamda iqtisodiy samaradorlikning ortishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, International Federation of Accountants (IFAC) tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ham raqamli texnologiyalar buxgalteriya kasbining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etilgan. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar texnologiyalarining rivojlanishi buxgalteriya hisobining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda elektron hisob-fakturalar tizimi, onlayn kassa apparatlari hamda elektron soliq hisobotlari joriy etilishi buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalarining rolini yanada oshirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganish uchun aniq ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil va umumlashtirish usullari tashkil etdi.

Birinchidan, tahlil usuli yordamida raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimining

nazariy asoslari hamda uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Bu jarayonda buxgalteriya hisobi, raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Ikkinchidan, taqqoslash (komparativ) usuli orqali rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobi tizimining raqamlashtirilish tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar o'zaro solishtirildi. Bu usul yordamida raqamli texnologiyalarni buxgalteriya hisobi tizimiga joriy etishning samarali yo'nalishlari aniqlandi.

Uchinchidan, tadqiqotda statistik tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonlari baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda mantiqiy umumlashtirish usuli qo'llanilib, o'rganilgan ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalar asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va iqtisodiy jarayonlarni shaffoflashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi korxonalarida raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish moliyaviy hisobotlarni tezroq tayyorlash, xatoliklarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini aniq qabul qilish imkonini beradi.


1. Raqamli buxgalteriya tizimidan foydalanish din O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda korxonalarda raqamli buxgalteriya tizimlaridan foydalanish sezilarli darajada oshgan. Quyidagi jadval va diagramma orqali yillik o'sish sur'ati ko'rsatiladi:

1-jadval.

Yil Umumiy korxonalar soni (ming) Raqamli buxgalteriya tizimidan foydalanuvchi korxonalar (ming) foiz (%)

Yil	Umumiy korxonalar soni (ming)	Raqamli buxgalteriya tizimidan foydalanuvchi korxonalar (ming)	Foiz (%)
2020	95	38	40
2021	98	47	48
2022	100	56	56
2023	102	69	68
2024	105	83	79

Raqamli buxgalteriya tizimidan foydalanuvchi korxonalar foizi (%)



Jadval va diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda 40% bo‘lgan raqamli tizimlardan foydalanish 2024-yilga kelib 79% ga yetgan. Bu o‘shish ko‘rsatkichlari korxonalarda raqamli hisob tizimlarini joriy etish jarayonining jadal sur‘atlarda rivojlanayotganini bildiradi.

2. Raqamli tizimlarning samaradorligi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etgan korxonalarda quyidagi samaradorlik oshgan:

1. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tezligi – o‘rtacha 35–40% ga oshgan.

2. Xatoliklar darajasi – an‘anaviy qo‘lda hisoblash bilan solishtirganda 25% ga kamaygan.

3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqti – zarur ma‘lumotlarni olish 50% ga tezlashgan.

4. Soliq hisobotlarini tayyorlash va topshirish – avtomatlashtirilgan tizimlar tufayli jarayon soddalashtirilgan.

Bu natijalar O‘zbekiston korxonalarida ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari, elektron hujjat aylanishi va bulutli saqlash xizmatlarining keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, real vaqt rejimida moliyaviy ma‘lumotlarni monitoring qilish va soliq organlari bilan avtomatik axborot almashish imkoniyatlari ham oshgan.

3. Muammolar va imkoniyatlar

• Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:

• Kadrlar malakasi yetarli emasligi – zamonaviy buxgalteriya tizimlarini boshqarish uchun malakali xodimlar zarur.

• Axborot xavfsizligi – ma‘lumotlarning himoyalaniishi va blokcheyn, shifrlash texnologiyalari bilan himoyalash muhim.

• Moliyaviy xarajatlar – dasturiy ta‘minot va texnologiyalarni joriy etish dastlabki investitsiyalarni talab qiladi.

Shu bilan birga, raqamli buxgalteriya tizimlari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

• Moliyaviy nazoratni kuchaytirish – barcha operatsiyalar real vaqt rejimida kuzatiladi.

• Iqtisodiy samaradorlikni oshirish – tezkor hisobotlar va boshqaruv qarorlari korxona faoliyatini optimallashtiradi.

• Shaffoflikni ta‘minlash – elektron hujjatlar va avtomatlashtirilgan tizimlar moliyaviy jarayonlarni shaffof qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston korxonalarida raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va tezkorligini ta‘minlaydi, boshqaruv jarayonlarini optimallashtiradi hamda iqtisodiy shaffoflikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, tizimning samarali ishlashi uchun kadrlar malakasini oshirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish korxonalarning moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy ma‘lumotlarning aniqligi va tezkorligini ta‘minlash hamda iqtisodiy faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida o‘rganilgan nazariy manbalar, statistik ma‘lumotlar hamda amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish korxonalarda



moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur bo'lgan axborotlarni tezkor taqdim etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlab, iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish uchun qulay institutsional va huquqiy asos yaratmoqda. Elektron hujjat aylanishi, onlayn kassa tizimlari, elektron hisob-fakturalar hamda avtomatlashtirilgan moliyaviy dasturlar buxgalteriya hisobini yuritish jarayonini zamonaviy bosqichga olib chiqmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Buxgalteriya hisobi tizimini to'liq raqamlashtirishni jadallashtirish. Korxonalarda zamonaviy ERP tizimlari, bulutli buxgalteriya dasturlari va elektron hujjat aylanish tizimlarini keng joriy etish zarur.

2. Buxgalteriya xodimlarining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish. Zamonaviy buxgalteriya dasturlari va axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha mutaxassislarining malakasini oshirish uchun maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish muhimdir.

3. Axborot xavfsizligini kuchaytirish. Buxgalteriya ma'lumotlarini himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyalari, kriptografik himoya vositalari hamda zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlaridan foydalanish lozim.

4. Davlat va xususiy sektor o'rtasida raqamli integratsiyani rivojlantirish. Soliq organlari, bank tizimi va korxonalar o'rtasida elektron axborot almashinuvi tizimlarini takomillashtirish moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshiradi.

5. Raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etishda investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun zamonaviy buxgalteriya dasturlarini joriy etishga davlat tomonidan imtiyozlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish korxonalarning moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida shakllangan zamonaviy buxgalteriya tizimi

kelajakda iqtisodiy boshqaruvning muhim tarkibiy qismiga aylanishi kutilmoqda.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Baybutayeva Farangiz Farxod qizi Qarshi davlat texnika universiteti talabasi / Байбутаева Фарангиз Фарход кизи студентка Каршинского государственного технического университета / Baybutayeva Farangiz Farkhod qizi student of Karshi State Technical University

E-mail: boybutayevaf@gmail.com

ORCID: 0009-1588-8854-1242

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] Elliott, B. va Elliott, J. (2019). Financial Accounting and Reporting. 19-nashr. London: Pearson Education Limited, 25–40-betlar.

[2] Romney, M. B. va Steinbart, P. J. (2021). Accounting Information Systems. 15-nashr. New York: Pearson Education, 45–60-betlar.

[3] Vahobov, A. V., Jo'rayev, T. va boshqa mualliflar (2019). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 52–67-betlar.

[4] Shodmonov, Sh. Sh. va G'afurov, U. V. (2020). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 120–135-betlar.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF–6079-son Farmon. Toshkent, 5-oktabr, 3–8-betlar.

[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida Qaror. Toshkent, 28-aprel, 4–9-betlar.

[7] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024). O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashri, 112–118-betlar.

[8] International Federation of Accountants (IFAC) (2022). Digital Transformation in Accounting. New York: IFAC Publishing, 15–22-betlar.

[9] Ernst & Young (2021). Digital Transformation of Accounting Systems. London: EY Global Report, 18–25-betlar.

[10] G'ulomov, D. (2021). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 90–105-betlar.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz